

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TIKUV
BUYUMLARINI LOYIHALASH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida tikuv buyumlarini loyihalash fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash va badiiy bezash

1. Kiyimlar assortimenti, kiyimga qo‘yiladigan talablar, kiyimni loyihalash asoslari, odam gavdasi haqida ma‘lumot

2. Ayollar belli, yelkali yengil kiyimlarini loyihalash va texnik modellash

3. Andozalarni gazlama ustiga qo‘yish va bichish, kiyimlarni modellashtirish va badiiy bezash asoslari

Bolalar kiyimini konstruktsiyalash va modellashtirish

4. Bolalar kiyimini konstruktsiyalash va kompozitsiya tuzish

5. Gavdadan o‘lchov olish, qizlar kuylagi asosi konstruktsiyasini hisoblash va qurish

6. O‘g‘il bolalar sarochkasi va belda turadigan kiyim konstruktsiyasini hisoblash va qurish

7. Trikotaj matodan bolalar kiyimlarini, bolalar ustki kiyimini konstruktsiyalash

8. Bolalar kiyimini modellashtirish, kiyimni dekorativ bezaklar bilan modellashtirish, detallari andozasini tayyorlash

Ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish

9. Kiyim tasnifi, ular oldiga qo'yiladigan talablar, gavda tuzilishi, gavda bermalol turishi

10. Milliy o'zbekcha kuyalak asosi chizmasi, bel kiyimlarini konstruksiyalash

11. Bolalar gavda tuzilishi va gavdadan o'lchov olish

12. Qiz bolalar paltosi asos chizmasi va hisoblash formulasi, ikki chokli yeng chizmasini qurish hisobi, kiyimni konstruktiv modellashtirish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Kiyimlar assortimenti, kiyimga qo'yiladigan talablar, kiyimni loyihalash asoslari, odam gavdasi haqida ma'lumot	Kiyim haqida ma'lumot, zamonaviy kiyimlar assortimenti, kiyimga qo'yiladigan talablar, Odam gavdasining tuzilishi va turlari, gavdaning antropometrik nuqtalari va chiziqlari, kiyimni loyihalash usullari, kiyimni loyihalashda ishlatiladigan o'lchov turlari, ularni gavdadan olish, va loyihalashda ishlatiladigan qo'shimchalar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8
2	Ayollar belli, yelkali yengil kiyimlarini loyihalash va texnik modellashtirish	To'g'ri bichimli yubka chizmasi, bo'lakli yubkalarni loyihalash, ayollar belli, yelkali yengil kiyimlarini loyihalash va texnik modellashtirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	3
3	Andozalarni gazlama ustiga qo'yish va bichish, kiyimlarni modellashtirish va badiiy bezash asoslari	Andozalarni gazlama ustiga qo'yish va bichish, modellashtirishning maqsad va bosqichlari, uslu va moda, kiyim kompozitsiya asoslari, zamonaviy kiyimlar turlari va tavsifi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	2
4	Bolalar kiyimini konstruksiyalash va kompozitsiya tuzish	Kiyim to'grisida umumiy ma'lumot, bolalar kiyimini konstruksiyasini qurish xususiyatlari, bolalar kiyimi turlari, kompozitsiya tuzish, bolalar kiyimini eskizini tayyorlash qoidalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	3

5	Gavdadan o'lchov olish, qizlar kuylagi asosi konstruktsiyasini hisoblash va qurish	Bolalar gavdasi va qaddi-qomat tuzilishi tiplari, gavdadan o'lchov olish: gavdani razmeri, bo'yi, va to'lalalik guruhini aniqlash, maktabgacha yoshdagi qizlar ko'ylagini qurish uchun kerakli o'lcham va qo'shimchalarni tanlash, qizlar ko'ylagi asos konstruktsiyasini hisoblash va qurish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	1
6	O'g'il bolalar sarochkasi va belda turadigan kiyim konstruktsiyasini hisoblash va qurish	Maktab yoshidagi o'g'il bolalar sarochkasi konstruktsiyasini qurish uchun kerakli o'lcham va qo'shimchalarni tanlash, o'g'il bolalar sarochkasi asosi konstruktsiyasini hisoblash va qurish, maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar shortigi, shimi, va kombinzon konstruktsiyasini qurish uchun kerakli o'lcham va qo'shimchalarni tanlash, shim, shortik, yarim kombinzon asos konstruktsiyasini qurish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	1
7	Trikotaj matodan bolalar kiyimlarini, bolalar ustki kiyimini konstruktsiyalash	Bolalar trikotaj buyumlari assortimenti, trikotaj matodan kiyim konstruktsiyasini qurishning o'ziga xos xususiyatlari, bolalar kiyimi konstruktsiyasini qurish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	2
8	Bolalar kiyimini modellashtirish, kiyimni dekorativ bezaklar bilan modellashtirish, detallari andozasini tayyorlash	Model eskizi bo'yicha bolalar kiyimi konstruktsiyasiga o'zgartirish kiritish qoidalari, model eskizi bo'yicha bolalar kiyimi konstruktsiyasini modellashtirish, bolalar kiyimida qo'llaniladigan dekorativ bezak turlari, kiyim modeli va eskiziga binoan turli xil bezak beruvchi elementlar bilan modellashtirish, model eskiziga asosan bolalar kiyimi asosiy va mayda detallari andozasini tayyorlash, asosiy andozadan foydalanib hosila va yordamchi andozalrni tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	5
9	Kiyim tasnifi, ular oldiga qo'yiladigan talablar, gavda tuzilishi, gavda bemalol turishi	Kiyim, kostyum, garderop, tushunchari, kiyim konstruktsiyasiga ta'rif, hozirgi zamon kiyimlarini klassifikatsiyasi, kiyimga qo'yiladigan talablar, gavdaning asosiy antropometrik nuqtalarini aniqlash, kiyimning gavdaga yopishib turish darjasi, konstruktiv qo'shimchalar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	3

10	Milliy o'zbekcha kuylak asosi chizmasi, bel kiyimlarini konstruksiyalash	O'zbek milliy kiyimlari haqida ma'lumot, o'tqazma yengli kiyim asos andozadan milliy koketkali kuylakni modellashtirish, belli kiyimlar ta'rifi, bel kiyimlarni konstruksiyalsh bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	5
11	Bolalar gavda tuzilishi va gavadan o'lchov olish	Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi asos chizmasi va hisoblash formulasi, ko'ylak bazis setkasi, asos chizmasi hamda yengil old ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigankonstruksiya asosi va hisoblash formulasi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	1
12	Qiz bolalar paltosi asos chizmasi va hisoblash formulasi, ikki chokli yeng chizmasini qurish hisobi, Kiyimni konstruktiv modellash	Qiz bolalar ust kiyimi paltoni asos chizmasini qurish, hisoblash formulasi, ikki chokli yeng chizmasini qurish hisobi, kiyimni konstruktiv qo'shimchalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	6

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test

3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S. Sh. Tashpulatov, M.K.Rasulova "Ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish" Toshkent "Turon nashriyoti" 2022.

2.Sh.G. Madjidova, M.A.Aripjanova, D.A.Bahriddinova "Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish" Toshkent "Turon nashriyoti" 2021

3.Q.M.Abdullayeva, N.S.Gaipova, M.A.Gafurova "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash" Iqtisod-moliya" nashriyoti, Toshkent-2014

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.